

O'zbekiston Respublikasida korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumotlar


2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz ma'lumotlar asosida)

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikada faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni **474,9** mingtani tashkil etdi. Shundan **403,8** mingtasi yoki **85** foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi.

Faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)



1-yanvar holatiga

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	shundan: kichik biznes subyektlari
2026	474 899	407 850	403 767
2025	424 840	361 793	358 116
2024	485 024	420 772	417 080
2023	592 371	527 222	523 556
2022	528 929	465 889	462 834

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni \(yillik\)](#)

[Faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni \(yillik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(yillik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik, dehqon va fermer xo'jaliklarisiz\)](#)

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning jamiga nisbatan yuqori ulushini Toshkent shahri (22,9 foiz), Toshkent (9,8 foiz), Samarqand (8,7 foiz), Farg'ona (8,0 foiz) va Qashqadaryo (6,4 foiz) viloyatlari tashkil etadi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	shundan: kichik biznes subyektlari
Qoraqalpog'iston Resp.	23 747	19 704	19 606
Andijon viloyati	27 002	21 643	21 503
Buxoro viloyati	28 831	25 094	24 948
Jizzax viloyati	18 461	15 300	15 208
Qashqadaryo viloyati	30 424	25 224	25 038
Navoiy viloyati	20 982	18 498	18 400
Namangan viloyati	27 097	22 650	22 471
Samarqand viloyati	41 091	34 722	34 495
Surxondaryo viloyati	25 065	20 841	20 753
Sirdaryo viloyati	12 239	10 049	9 975
Toshkent viloyati	46 479	40 524	40 139
Farg'ona viloyati	37 846	31 519	31 289
Xorazm viloyati	26 957	23 597	23 465
Toshkent shahri	108 678	98 485	96 477

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p qismi savdo tarmog'ida bo'lib, ularning jami korxonalar sonidagi ulushi 32,3 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar jami soniga nisbatan ulushi



Ikkinchi o'rinda sanoat 12,5 foizni, uchinchi o'rinda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 7,4 foizni tashkil etdi.

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat – korxonalar umumiy sonining 50 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34 881	34 411	34 283
Sanoat	59 520	59 350	58 543
Qurilish	30 343	30 085	29 801
Savdo	153 370	153 348	152 570
Tashish va saqlash	17 245	17 181	16 989
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	30 374	30 287	30 145
Axborot va aloqa	11 901	11 611	11 402
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	14 283	10 385	10 264
Boshqa turlar	122 982	61 192	59 770

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)
[Faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)
[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)
[IFUT bo'yicha faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(bo'lim kesimida, oylik\)](#)
[IFUT bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar soni \(bo'lim kesimida, yillik\)](#)
[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Qurilish sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar soni \(oylik\)](#)
[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)
[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

Tadbirkorlik subyektlari



2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat yuritayotgan **407,9** mingta tijorat tashkilotdan **320,9** mingtasi (**78,7** foiz) mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, MCHJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (% da)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	320 870	78,7
Xususiy korxonalar	46 866	11,5
Oilaviy korxonalar	36 158	8,8
Aksiyadorlik jamiyati	636	0,2
Boshqalar	3 320	0,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyat soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyat soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

III. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


Hududlar	Jami:	shundan:	
		qo' shma korxona	xorijiy korxona
O'zbekiston Respublikasi	18 164	4 247	13 917
Qoraqalpog'iston Resp.	219	77	142
viloyatlar:			
Andijon viloyati	420	127	293
Buxoro viloyati	372	127	245
Jizzax viloyati	258	107	151
Qashqadaryo viloyati	163	81	82
Navoiy viloyati	310	111	199
Namangan viloyati	262	100	162
Samarqand viloyati	678	262	416
Surxondaryo viloyati	500	63	437
Sirdaryo viloyati	290	94	196
Toshkent viloyati	2 402	495	1 907
Farg'ona viloyati	615	224	391
Xorazm viloyati	198	68	130
Toshkent shahri	11 477	2 311	9 166

2026-yil 1-yanvar holatiga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan **18 164** ta korxonadan **4 247** tasi qo' shma korxonalar va **13 917** tasi xorijiy korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Toshkent shahriga **63,2** foiz, viloyatlar orasida esa Toshkent – **13,2** foiz, Samarqand – **3,7** foiz va Farg'onada – **3,4** foizga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda oxirgi besh yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning umumiy soni 1,9 barobarga, shu bilan birga xorijiy korxonalarning ulushi (jamiga nisbatan) 54,9 foizdan 76,6 foizgacha oshgan.

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona va tashkilotlar



2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalarning soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 3 293 taga (22,1 %) o'sgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 5 332 tadan 6 494 taga, (o'sish 1 162 taga), sanoat sohasida 3 217 tadan 3 754 taga (o'sish 537 taga) va qurilish sohasida 1 085 tadan 1 412 taga (o'sish 327 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Jami:	18 164	4 247	13 917
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	461	197	264
Sanoat	3 754	1 443	2 311
Qurilish	1 412	283	1 129
Savdo	6 494	1 032	5 462
Tashish va saqlash	586	129	457
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	760	155	605
Axborot va aloqa	1 398	191	1 207
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	211	80	131
Boshqa turlar	3 088	737	2 351

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat yuritayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 5 044 ta korxona bilan Xitoy Xalq Respublikasi egalladi. Bu respublikadagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,8 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib, hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya (17,5 foiz), Turkiya (11,8 foiz),

Qozog'iston (6,7 foiz), Janubiy Koreya (3,8 foiz) va Afg'oniston (3,5 foiz) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Xitoy	5 044	748	4 296
Rossiya	3 181	896	2 285
Turkiya	2 137	496	1 641
Qozog'iston	1 212	274	938
Janubiy Koreya	693	184	509
Afg'oniston	635	73	562
BAA	414	141	273
Tojikiston	389	99	290
Hindiston	375	86	289
Ozərbayjon	367	63	304
Qirg'iziston	344	87	257
AQSH	340	145	197
Turkmaniston	270	52	218
Buyuk Britaniya	247	119	128
Belarus	242	57	185
Eron	228	73	155
Germaniya	225	106	119
Pokiston	208	18	190
Ukraina	196	53	143
Yaponiya	126	29	97

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 539-son qaroriga muvofiq Korxona va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlar asosida shakllantiriladi.

✓ Korxona va tashkilotlarning Yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiya jarayonini ta'minlaydi.

✓ Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registriga oid ro'yxatini ushbu havola <https://my.gov.uz/uz/service/662> orqali ham olish imkoni mavjud.

✓ Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2026-yil 1-yanvar** holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklari ma'lumotlarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxona va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt
va statistik registrnlarni yuritish boshqarmasi
Tel.: +99871-203-80-00 (1360)

Manzil:

100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Pochta: info@stat.uz

